

1-26-2020

THE IMAGE OF MANSOUR HALLAZH IN MASHRAB'S POETRY

Zilola Kodirovna Amonova

associate professor of the department of uzbek literature, BSU

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/buxdu>



Part of the [Life Sciences Commons](#)

Recommended Citation

Amonova, Zilola Kodirovna (2020) "THE IMAGE OF MANSOUR HALLAZH IN MASHRAB'S POETRY," *Scientific reports of Bukhara State University*. Vol. 3 : Iss. 1 , Article 10.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol3/iss1/10>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific reports of Bukhara State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Топишмоқдаги ўра – оғиз, шўра – соқол, мўйлов, булоқ – бурун, чироқ – кўз, қалам – кош, чангал – соч.

Баъзи бир топишмоқларда предметнинг ўзи йўқ, от сўз туркумига оид бўлиб эмас ёки эга вазифасида келмайди, яъни айнан бир предмет иккинчи бир предметга қиёс қилинмайди. Балки жумбоқланган нарса одамга хос ҳаракат сифатида тасвирланади. Масалан, “*Кундузи роҳатда, кечаси меҳнатда*” (127-б) топишмоғининг жавоби кўрпа. Топишмоқда кўрпанинг кундузи йиғиштириб қўйилгандан кейин бир жойга тахланиб, қимирламай туриши одамнинг роҳатда, ором олишига ва кечки пайт кўрпанинг ишлатилиши одамнинг меҳнат қилиш пайтига кўчма маънода ифодаланган.

Топишмоқлар икки: савол ва жавоб қисмидан ташкил топганлиги боис метафорик кўчимнинг маъноси топишмоқнинг жавоб қисмида англашилади. Топишмоқда жумбоқланган нарса-ҳодиса ё бутунлигича, ё қайсидир жиҳати билан албатта, иккинчи бир предметга қиёсланган кўчимга эга бўлади.

Хулоса. Бир сўз билан айтганда, метафора топишмоқнинг образлилигини, бадийлигини оширишга хизмат қилади. Шу билан биргаликда айтиш мумкинки, метафорик топишмоқларда жумбоқланган жавобни топиш анча мушкул. “Топишмоқ – бу оддий метафорик берилган савол эмас, биз уни айёрона тузилган савол, деб айтар эдик”(9), дейилиши бежиз эмас. Метафорик топишмоқларнинг ранг-баранглиги, улардаги кўчимнинг табиати мураккаблиги боис бундай топишмоқлар жавобини топиш кишидан анча билим, тасаввур олам кенглигини, турли нарсаларни поэтик идрок эта билиш, англаш, чуқур фикрлашни талаб қилади.

АДАБИЁТЛАР

1. **Husainova Z.** O'zbek topishmoqlari. - Toshkent: Fan, 1966. - B.112.
2. **Husainova Z.** Xalq topishmoqlaridagi bir badiiy vosita //O'TA. - 1984. - 1-son. - B. 36-40.
3. **Husainova Z.** Topishmoqlarda epitet //O'TA. - 1988. - 1-son. - B. 54-56.
4. **Qobulova U.S.** Metaforik matnda integral va difrensemalar munosabati (O'zbek topishmoqlari misolida):filol. fan.nomz.diss...avtoref. - Toshkent, 2007. - B. 53.
5. **Qobuljonova G.** Metaforalarning sistemaviy-lisoniy talqini (O'zbek topishmoqlari misolida): filol.fan.nomz.diss...avtoref. - Toshkent, 2006. - B. 55.
6. **Madaev O.** O'zbek xalq og'zaki ijodi. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. - B. 91-94.
7. **Lavonen N.A.** Karelskaya narodnaya zagadka. - Leningrad, 1977. - S. 88.
8. Topishmoqlar. O'zbek xalq ijodi. Ko'p tomlik. Nashrga tayyorlovchi: Husainova Z. - T.: Adabiyot va san'at, 1981. - 65-b. (Maqoladagi barcha topishmoqlar shu manbadan olingan, keyingi o'rinlarda betlari berilgan.)
9. **Kravtsov N.I., Lazutin S.G.** Russkoe ustnoe narodnoe tvorchestvo. - M., 1971. - S. 86.

UDK: 891.709

MASHRAB G'AZALLARIDA MANSUR HALLOJ SIYMOSI

ОБРАЗ МАНСУРА ХАЛЛОЖА В ПОЭЗИИ МАШРАБА

THE IMAGE OF MANSOUR HALLAZH IN MASHRAB'S POETRY

Amonova Zilola Qodirovna

BuxDU o'zbek adabiyoti kafedrası dotsenti

Amonova Zilola Kodirovna

associate professor of the department of uzbek literature, BSU

Tayanch so'zlar: Sharq mumtoz adabiyoti, tasavvuf, hallojlik, Anal-haq, Mansur Halloj, Mashrab.

Ключевые слова: восточная классическая литература, суфизм, Анал-хак, Мансур Халлож, Машраб.

Key words: Eastern classical literature, sufism, religious beliefs, Mansur Halloj, Anal-haq, Mashrab.

Maqolada Mansur Halloj va uning Mashrab she'riyatidagi diniy e'tiqodlari tasvirlangan. Mashrab she'rilarida ilgari surilgan g'ayrat, matonat, tanlagan e'tiqodiga sadoqat, adolat va

ADABIYOTSHUNOSLIK

xavfsizlikka yuksak muhabbat kabi g'oyalar mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashning buyuk maqsadiga xizmat qilishi mumkin.

В статье рассказывается о Мансуре Халлодже и его религиозных убеждениях в поэзии Машраба. Идеи, выдвинутые в стихотворениях Машраба, такие как мужество, настойчивость, преданность избранной вере и высокая любовь к справедливости и безопасности, могут служить великой цели воспитания гармонично развитого поколения в нашей стране.

The article describes Mansur Halloj and his religious beliefs in Mashrab's poetry. The ideas put forward in Mashrab's poems, such as courage, perseverance, devotion to one's chosen faith, and a high love for justice and security, can serve the great goal of educating a harmoniously developed generation in our country.

Kirish. Ma'lumki, tasavvuf XI asrdan beri Sharq shoirlarini o'ziga maftun etib kelgan. Shu munosabat bilan tasavvuf she'riyati yuzaga keldi. Uning talaygina istilohlari bilan birga o'ziga xos qahramonlari ham shakllandi. Jumladan, tasavvuf she'riyatining markaziy qahramonlaridan biri Mansuri Hallojdir. U – o'zining “Anal-haq” (Men haqman) g'oyasi bilan butun dunyoga tanilgan siymo. Sharq mumtoz adabiyotida Hallojning bu g'oyasidan ilhomlanmagan shoirni topish dushvor. Tasavvuf olamida Halloj, Fariduddin Attor, Nasimiy va Boborahim Mashrablarining hayot yo'li g'oyatda murakkab, ayni damda bir-birlari bilan bog'liqligini ko'rish mumkin. Boborahim Mashrab o'zbek tasavvuf she'riyatining yirik vakillaridan biri bo'lib, mumtoz ijodkorlarimiz orasida o'zining jo'shqinligi, ilohiy ishqni haddi a'losiga yetkazib kuylaganligi bilan ajralib turadi. Shoir ijodi tasavvuf g'oyalari bilan yo'g'rilgan.

Asosiy qism. Mashrab – ilohiy ishqning mast-u devonasi, majnun shoir. Uning ijodida o'zi e'tiqod qo'ygan shaxslar nomi bot-bot uchrab turadi. Shulardan biri Mansur Hallojdir. Mashrab Halloj e'tiqodiga imon keltirib, she'rlarida juda ko'p martalab uning nomini ixlos bilan tilga oladi. Qolaversa, Halloj va Mashrab taqdirida o'xshashlik mavjud. Ya'ni Halloj “Anal-haq” g'oyasi tufayli dorga osilgan bo'lsa, Mashrab ham Balx hokimi Mahmud Qatag'on tomonidan 1711 - yilda dorga osiladi. Halloj qalbida porlagan ma'rifat va haqiqat Mashrab ko'nglini ham egallab oladi, unga xayrixohligini she'larida oshkora, baralla bayon etadi. Hatto, o'z umrining ham oxir-oqibatda Mansur taqdiridek yakunlanishini oldindan bashorat etadi:

Mansuri Hallojdek ichib sharobi antahur,

Charx urub yig' lab tururman ushbu dam dor oldida [1, 12].

Shoir Halloj anglab yetgan haqiqat siriga oshno bo'lganligini, bu oshnolik esa uni “dor oldiga” yetaklashini ta'kidlamogda. Mashrab “Anal-haq” sirini hammaga ham oshkor etib bo'lmasligini, uni faqat xos kishilargina anglashi, bu sirning mazmuniga, uning tub mohiyatiga ulargina yetishishi mumkinligi quyidagi misralarida ifodalagan:

Anal-haq sirrini har bexabarga aytmagin zinhor,

Xudoning roziga mahram emasdur kimki tangdildur [1, 237].

Kim Yaratganning siriga, xohishiga sirdosh, hamdam bo'lmasa, unga Anal-haqning ma'nosini tushuntirish foydasiz ekanligin uqtirgan.

Mansur Halloj “Anal-haq” tufayli shariat peshvolarining ham, ba'zi tariqat ahlining ham g'azabiga uchragan. Din ahllari, ba'zi shayxlar Hallojning mazkur tushunchasini qabul qila olmadilar. Mashrab esa Mansur Hallojni o'ziga ustoz deb biladi va ustozni ortidan ergashishni sharaf deb biladi. Chunki u “Anal-haq” (“Men haqman”)ning mohiyatiga allaqachon yetgan edi. Mashrabdagi insoniy yolg'izlik ilohiy yolg'izlikka evrilgan. Undan “Yolg'izlik nima?” - deb so'ralganda u, “Xudo!” - deb javob berganligini she'rlari orqali bilish mumkin. Mashrab Halloj yo'lini tanlar ekan, doimo u singari Haq yo'lida boshini dor ostiga eltishga tayyor turadi, chunki bu uning tanlagan e'tiqodi edi:

Hu desam anal-haq deb, olam borisi haq der,

Mansur kabi boshimni dor uzra tutay derman [1, 125].

Mashrab g'azallarida oshiqning ishq iztiroblari, uning Yor vasliga yetish yo'lidagi mashaqqatlari mahorat ila tasvir etiladi. Ko'ngil dardini so'rar bo'lsang oshiqlik dardini totgan, ishq o'tida kuygandan so'ra deydi shoir:

Ko'ngul dardini bir ko'ngli buzulg'on yordin so'rg'il,

Bu ishq o'tig'a kuyganni dili afgordin so'rg'il.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Shoir o'z fikrlarini davom ettirib, mehribonidan ayrilgan kishini men kabi sahardan kechgacha oh-u zor, dod- faryod chekadi, ishq olovida yonadi, deb o'z fikrlarini davom ettiradi:

Banogoh mehribonidin judo bo'lg'on kishi holin,
Sahar ohu fig'ona aylab meningdek zordin so'rg'il.

Mashrab ishq yo'lida shahid bo'lgan bechora oshiq ahvolini bilmoqchi bo'lsang, o'shal vaqtda dorga osilgan, qo'l oyog'i chopilib, olovda kuydirilgan Hallojdan so'ra deydi. Halloj yor visoliga yetib, komillikka erishgan, ilohiyot bilan birlik hosil qilgan zot sifatida Mashrab uchun jasorat sohibi edi. Chunki Mansur Halloj riyozat yo'lida uchragan to'siqlarga dosh berib, o'z maqsadidan voz kechmagan, hayotning asl mohiyatini anglab yetgan edi. Ammo uning Anal-haq g'oyasining mag'zini anglay olmay, o'z mavqeyi, huzur-halovatini o'ylagan shayxlar, din peshvolari uni qatl etishga fatvo berdilar. Mashrab talmeh san'ati vositasi bilan baytda ayni mohiyatni singdirgan:

Shahidi ishq bo'lg'on oshiqi bechora ahvolin,
O'shal dam Mansuri maston osilg'on dordin so'rg'il.

So'fiylar uchun tariqat zikru samo, vajdu hol, kasbu karomat edi. Mashrab singari buyuk shoirlar uchun esa ma'shuqa jamoli va undan bahramandlik asosiy mohiyat edi. G'azal maqta'sida shoir Halloj singari ishq yo'lida achchiq yoshlar to'kadi. Endi u ham hasrat o'tida yonadi.

Bu Mashrab qon yutub har dam to'kar xunoban hasrat,
Ki xo'blar ajrini mahshar kuni sattordin so'rg'il [1, 69].

Shoir yuqoridagi misralarda haq yo'lida o'z jonidan kechgan Mansur Halloj nomini tilga olar ekan, uning bu haqiqatparast shoirga nisbatan ehtiromi yuksakligini anglash mumkinligidan dalolat beradi. Garchi, Halloj va Mashrab orasini bir necha asrlar ajratib tursa-da, ularni bir umumiy jihat, u ham bo'lsa "Haq ishq"ga bo'lgan ehtirom birlashtirib turadi. Tasavvuf tadqiqotchilarining e'tirof qilishlaricha, Mansur Halloj va Boyazid Bistomiyda vahdatul vujudga yaqin fikr-qarashlar bo'lgan. Bu so'fiylarning har ikkalasi ham nafsni to'la yengib Allohdan boshqa hech nimani tan olmaganlar. Va goho shu darajada ilgarilab ketganlarki, goho ularning ko'ziga Alloh ishqidan bo'lak hech narsa ko'rinmagan. Lekin ularning tajribalari zaminida, insonning erk va istiqboli insonning o'zligida, uning o'zida samoviy istak va irfoniy ehtiyoj uyg'onmaguncha, u hech qachon ilohiylashmaydi, degan buyuk bir ma'no yashiringandir [3, 13]. Mashrab ham Halloj chiqqan cho'qqiga chiqishni, uning ortidan yurib, u erishgan darajaga yetishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Mashrabning bu maqsadi u bitgan misralarda jo bo'lgan:

Vahdat mayini piri mug'on ilkidin ichtim,
Mansur kabi boshimi dorg'a tuta qoldim [1, 84].

Yoki:

Mansuri Hallojdek ichib sharobi antaxur,
Sudratib dor ostiga olib borayin dermusan? [1, 132]

Endi uning oldida masjid-u butxona, Ka'ba-yu kaliso tuproq bilan teng, arzimas bir jihatlardir. Endi u jannatu do'zaxni ham tan olmaydi, chunki uning maqsadi eng ulug' va yuksak – Yor visoli. Shunday ekan, Mashrab ikki dunyo naqdi, huru g'ilmon, arsh-u kursi ham o'zimman, deyishga haqli. Shoir Mansur kabi boshini dorga tutishga rozi. Ushbu g'azalda shoir mayni ilohiy ishq — ma'rifat, donish ishtiyoqining avji qiyomi, Yor jamoli mushohadasidan oshiq dilida paydo bo'lgan kuchli zavq — ilhomning, behad xursandlik, sururning ramziy ifodachisi sifatida qo'llagan. Xumor bo'lish, mayparastlik ham bu yerda shunga muvofiq. Bu buyuk nur chashmasidan huzurlanish, visol bexudligi, hayot tabiat zeboligi hamda aql va tafakkur yetmaydigan, ammo ko'ngil bilan his etiladigan Mutlaq ruh mo'jizoti jilvasidan bahramandlik va shunga talpinish sarxushligidir. Inson tabiatida ikki jihat — ruhiy va moddiy olam, ya'ni ruh va nafs orasida kurash boradi. Agar moddiy asos bo'lmish jism talablari kuchaysa, u hirs va shahvat, hayvoniy nafs domiga tushadi va borgan sari tubanlashadi. Bu xavfning oldini olish uchun kishi doimiy ravishda taqvoga alohida ahamiyat qaratib ruhiy-ma'naviy ehtiyojlarini inobatga olib borishi lozim. Bu ishda unga o'zidan ko'ra komilroq inson — pir rahnamolik qiladi. Pir-ustozlar hamma vaqt ezgulikni o'ylab, o'ziga ergashgan odamlarni qalb saxovati bilan tarbiyalaganlar, ularning irodasini chiniqtirib, ko'ngil chashmasining ko'zini ochib, olamni yangicha tushunishga, haq yo'lini himoya qilishga o'rgatganlar. Pir yoki murid tanlash masalasiga tasavvuf ahli alohida ahamiyat

ADABIYOTSHUNOSLIK

qaratganlar. Mashrab ham Hallojga pir sifatida qaragan. Yuqorida keltirganimiz g'azalda shoir mayni piri mug'on, ya'ni Mansur Halloj qo'lidan chiqqanligini hamda u singari boshini dor ostiga qo'yganligini nazarda tutadi.

Halloj zamondoshlari orasida ham unga hamfikir bo'lgan zotlar bor edi. Shayx Attor, Shibliy, Jurayriy singari maslakdoshlari u singari boda ichib, sarxush bo'lgan, "Anal-haq" suhbatini qurib, uning asl mohiyatini anglab yetgan edilar. Jumladan, Jaloliddin Rumiyning ham Mansur Halloj tarafdori ekanligini, bu yo'l mohiyatini u ham to'la anglaganligini uning "Anal-haq deyish kamtarinlik belgisidir, Oллоhdan boshqa borliq yo'qdir. Men yo'qman, barchasi udir. Bu so'zlarda kamtarinlik ko'proq emasmi"? degan so'zlaridan ham amin bo'lishimiz mumkin. Ammo bu ishq faqat Hallojningina dor ostiga eltdi:

Shayx Shibliy, shayx Attorul "Anal-haq" suhbatin-
Qurdi, ichdi bodani, Mansurni dordo qildi ishq [1, 222].

Halloj dorga osilgandan so'ng ham o'sha dordan "Anal-haq" degan sado ming martalab takrorlanadi, tog'-u toshlardan, dengizlardan ham bu ovoz eshitilib turar edi. Hallojni dorga osishayotganda u mening jismimni egallashingiz, yengishingiz mumkin, ammo ruhimni hech qachon yenga olmaysiz deydi. Uning so'zlari haqiqat edi:

Ming Anal-haq keladur Mansur osilg'on dordin,
Har zamon labbayka deb kelg'ay nido jabbordin [1, 141].

Mashrab Hallojdek qalbida kechayotgan dil tug'yonlarini ochiq-oydin aytishdan sira qo'rqmagan. Bu holat uning g'azallariga ham ko'chgan. Tanamdagı qonimni Mansur singari tutadim, jism, nafs zanjiridan ozod bo'ldim, deydi oshiq:

Xuni g'arq birla ado, qildim, base Mansurman,
Ohi sardim bo'ldi savmim, ham fig'onim-toatim.

Shuningdek, ro'zada sovuq nafasim, qilgan toat-ibodatim menga dalda bo'ldi, deya shoir o'zini Mansur Hallojga qiyoslaydi.

Mashrab endi "Anal-Haq" go'ylar, ya'ni Hallojga o'xshaganlar ruhi taskin topishini Yaratgandan so'rganligini ham ko'rish mumkin:

"Anal-Haq" go'ylarni ruhiga daryoyi rahmat ber,
Bag'ishlar rahmatingni jon tasadduq qildi Mansuri [2, 23].

Yana:

Musoni mahv etib Turga, osib Mansurni doriga,
Shifo mandindur ranjurga, jahonni shodmoniman [2, 29].

Mashrab Hallojga qo'shilib, uning izidan borganligini faxr bilan e'tirof etadi. Bu e'tirofini shoir keyingi misralarda ham davom ettirib, Mansur Hallojning o'limiga u "ro'yi siyahlar – yuzi qoralar," sababchi bo'lganini afsus ila aytadi. Ularni yuzi qoralar deya o'rinli ataydi. Chunki u ishq siridan bexabar kimsalar hayotning asl mohiyatini tushunmadilar:

Ming shukr xudoyimg'a Mansurg'a qo'shuldim men,
Ul ro'yi siyahlarkim Mansurni o'ldurg'on [1, 148].

Shoir Mansur dorini Xalil doriga qiyoslaydi. Afsonalarga ko'ra, Namrud Ibrohim Payg'ambarini o'tga kuydirmoqchi bo'lganida o't gulzorga aylanib qoladi. Mansur Halloj osilgan dor ham go'yo chamanzor, qalb musaffoligiga erishadigan, ko'ngilga sokinlik bera oladigan joy. Shu sabab Mashrab ham Xoja Ahrori Validek ishq mayidan totib, bu gulzor uzra sayr qilishni xohlaydi:

Dori Mansurni quremdi, man Xaliloso boray,
Xoja Ahrori Validek mast shaydoman bu vaqt [1, 242].

Mansur Halloj singari to'g'ri yo'lni tanlagan (irshodmand), qalbida Ilohga bo'lgan muhabbatini umrining so'ngiga qadar saqlagan kimsalar bu ishq yo'lida barcha qiyinchiliklarga, qarshiliklarga bardosh bera oldilar. Bunday insonlar Oллоh bilan birlikka erishdilar. Shu sababli ular o'limdan, dor ostiba turishdan cho'chimadilar. Mashrab o'z qismati, umri tugab yetganda uning uchun qurilgan dor ostiga borishni sharaf deb biladi. Demak, Halloj singari u ham umrining so'ngida hayoti qay tariqa yakun topishini oldindan qalb ko'zi bilan ko'ra bilgan, his qilgan. Taqdiri qanday yakun topishini bila turib ham, Ishaq yo'lidan qaytmagan :

Necha Mansur o'ldi irshodmand muhabbat yo'lida,
Menga ham dori qurulg' onda yetar bu qismatim [1, 99].

ADABIYOTSHUNOSLIK

Keyingi g'azalda oshiq yor diydoriga ilhaq, uning ishq o'tida o'rtanib yuradi. Oshiq yorga murojaat qilib, ishq yo'lida kuya-kuya kul bo'layotganimni bilmaydi shekilli degan o'yga boradi:

Oshiqi diydorman, ey yor, bilmassan magar,
Mansuri Hallojdek dorga osilg'on o'zginam [1, 72].

Aytish kerakki, Mashrabning mutlaq Ilohga ishq Mansur Halloj singari xuddi shunday samimiy va ehtirosli edi. Shoir ijodida hech bir soxtalik, pardali, kinoyali gaplarni uchratmaymiz. Iloh-mahubga yetishish ishtiyoqi, ishq g'alayoni shoir vujudini "adam qilib" (foniy etib), ma'rifat daryosiga g'arq etadi. U bunday yagonalik shavqi, ya'ni vahdat mayidan sarxush bo'lib, o'zini arshi a'loda his etadi:

Dori Mansuri Anal-haq joyidur,
Bosh berib yuz ming nido topsam kerak [1, 232].

Uning ilohiy muhabbat, ilohiy ishq va undan lazzatlanish yo'llari Mansur Halloj bilan bir xil edi. Darvoqe, Mansur Halloj hayoti, g'oyalari sharq mumtoz adabiyoti vakillaridan hech birini befarq qoldirmagan. Jumladan, Ahmad Yassaviy, Imodiddin Nasimiy, shuningdek, Boborahim Mashrab nomini alohida qayd etish joiz.

Xulosa. Mashrab she'rlarida ilgari surilgan g'oyalar – shijoat, matonat, tanlagan e'tiqodiga sadoqat, adl-u amniyatga bo'lgan yuksak muhabbat kabi umumbashariy g'oyalar yurtimizda barkamol avlodni tarbiyalashdek ulug' maqsad yo'lida beminnat xizmat qila oladi.

ADABIYOTLAR

1. **Mashrab Boborahim.** Mehribonim qaydasan. - T.: G'afur G'ulom, 1990. - B. 415.
2. **Mashrab Boborahim.** Mabdayi nur. - T.: Fan, 1994. - B. 36.
3. **Ibrohim Haqqul.** Taqdir va tafakkur. - T.: Sharq, 2007. - B. 336.